

MAKTABGACHA TA'LIMNI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING YANGI MODELLARI

Abdullayeva Barno Baxtiyor qizi

Puchon universiteti Ta'lim menejmenti
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy hamkorlik modellari va ular orqali sifatni oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, boshqaruv, hamkorlik modellari, boshqaruv, ta'lim, davlat, pedagogika, monitoring, tizim, yondashuv.

Abstract: This thesis discusses the issues of modernization of management processes in the preschool education system, modern models of cooperation and quality improvement through them.

Keywords: Preschool education, management, models of cooperation, innovative management, digital education, public-private partnerships, pedagogical cooperation, monitoring, strategic management, systematized approach.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы модернизации процессов управления в системе дошкольного образования, современные модели взаимодействия и повышения качества через них.

Ключевые слова: Дошкольное образование, управление, модели взаимодействия, инновационный менеджмент, цифровое образование, государственно-частное партнерство, педагогическое сотрудничество.

Barchamizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim jamiyat taraqqiyoti va inson kapitalining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Hozirgi globallashuv jarayonida bolalarning intellektual, ma'naviy, jismoniy rivoji bo'yicha talablar ortib bormoqda. Shu sababli maktabgacha ta'lim tizimini boshqarish, uning sifatini oshirish hamda jarayon ishtirokchilari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda, davlat-xususiy sheriklik kengaytirildi, ta'lim dasturlari yangilandi, pedagoglarni qayta tayyorlash tizimi kuchaytirildi, raqamli texnologiyalar joriy qilindi. Bu jarayonlar boshqaruvning yangi, zamonaviy va samarali modellari zarurligini ko'rsatmoqda. Maktabgacha ta'limda boshqaruv bu ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil qilish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va rivojlantirishga qaratilgan kompleks faoliyatdir. **Ta'lim dasturlarini joriy etish va yangilash** maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishdagi eng muhim jarayonlardan biri bo'lib, u ta'lim mazmunining zamon talablari va bolalar rivojlanish ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilishini anglatadi [1]. Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishda so'nggi yillarda tub o'zgarishlar sodir bo'lib, jarayon an'anaviy ma'muriy yondashuvdan innovatsion, raqamlashtirilgan va hamkorlikka asoslangan boshqaruv modeliga o'tmoqda. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida bola markazli yondashuv ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilib, qarorlar qabul qilishda bolalarning individual ehtiyojlari, ruhiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanish sur'atlari inobatga olinmoqda. Bunda elektron monitoring, raqamli tahlil tizimlari, pedagog faoliyatini avtomatlashtirilgan baholash vositalari kabi zamonaviy texnologiyalar boshqaruvning samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda [2]. Statistik ma'lumotlarning tezkor tahlil qilinishi, ta'lim jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularga javob qaytarish imkoniyati boshqaruv sifatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Maktabgacha ta'limni boshqarish jarayonida ta'lim menejmentining

zamonaviy tamoyillariga asoslangan holda tizimning samaradorligini oshirish, tarbiyaviy jarayonni bola shaxsining har tomonlama rivojiga yo'naltirish va amaldagi pedagogik jarayonlarni optimallashtirish zarur. Avvalo, boshqaruvning markazida bola turishi lozim bo'lib, uning yosh psixologik xususiyatlari, rivojlanish sur'atlari, qiziqishlari va individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish ta'lim menejmentining eng muhim vazifalaridan biridir. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muvaffaqiyati bevosita pedagoglar malakasiga bog'liq bo'lgani sababli, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish, ularni zamonaviy metodikalar, innovatsion texnologiyalar va bolaga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlari bilan tanishtirib borish boshqaruvning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim menejmenti sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalanish boshqaruv samaradorligini oshiradi. Elektron monitoring tizimlari, bolalar rivojlanishini qayd etuvchi raqamli kuzatuvlar, pedagoglar faoliyatini baholashning elektron tizimi, ota-onalar bilan muntazam aloqa o'rnatishga xizmat qiluvchi mobil platformalardan foydalanish boshqaruvning shaffofligi va nazorat mexanizmlarining kuchayishiga olib keladi [3]. Shuningdek, maktabgacha ta'lim dasturlarining sifatini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yangilab borish, o'yinli ta'lim, integrativ metodlar, STEAM yondashuvlari va kreativ kompetensiyalarni rivojlantiruvchi topshiriqlarning joriy etilishi pedagogik jarayon samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'limda boshqaruv jarayonining yana bir muhim jihati ota-onalar bilan muntazam va tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yishdir. Oila va ta'lim maskani o'rtasidagi uzviylik bolalarning tarbiyaviy va psixologik rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ota-onalar bilan suhbatlar, seminar-treninglar, ochiq mashg'ulotlar, maslahat xizmatlari, MTT va oila o'rtasida tezkor axborot almashish tizimini shakllantirish boshqaruvning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bundan tashqari, mahalla, maktab, tibbiyot muassasalari, psixologik xizmatlar, nodavlat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish ta'lim jarayonining kompleksligini ta'minlaydi va bolani har tomonlama qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi [4]. Ta'lim dasturini joriy etish bu yangi o'quv-tarbiyaviy dasturni amaliyotga tatbiq etish, pedagoglarga mazmunini tushuntirish, metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash, dastur asosida yil, oy va hafta rejalashtirishlarini ishlab chiqish, mashg'ulotlarni yangi metodlar asosida tashkil etish jarayonidir. Bunda tarbiyachilar dasturga mos texnologik xaritalar tuzadi, integratsiyalashgan darslar, zamonaviy o'yin texnologiyalari, STEAM elementlari va innovatsion metodlar asosida mashg'ulotlar o'tkazadi. Ta'lim dasturlarini yangilash esa mavjud dastur mazmunini qayta ko'rib chiqish, zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida takomillashtirish demakdir. Bu jarayonda bolalarning yosh xususiyatlari, rivojlanish darajasi, xalqaro tajriba, ilmiy-tadqiqot natijalari va amaliyotda uchrayotgan muammolar inobatga olinadi. Eskirgan topshiriqlar o'rniga zamonaviy faol o'yinlar, kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar va interaktiv metodlar kiritiladi [5]. Dasturga raqamli texnologiyalar, multimedia resurslari, elektron ta'lim vositalari, sensor rivojlanishga qaratilgan materiallar qo'shiladi. Shuningdek, dastur samaradorligi muntazam ravishda monitoring qilinib, pedagoglar va ota-onalar fikri asosida takomillashtirib boriladi. Bu jarayon uzluksiz bo'lgandagina maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishi va zamonaviy pedagogik tajribalarni joriy etish imkoniyati yaratiladi.

Pedagogik jarayonni rejalashtirish bu maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya faoliyatini tizimli, maqsadli va uzviy ravishda tashkil etishga qaratilgan jarayondir. Rejalashtirish pedagogning o'z faoliyatini aniq maqsadlar bilan yo'naltirishiga, mashg'ulotlar o'zaro uyg'unlikda olib borilishiga va bolalarning rivojlanish ehtiyojlarini to'liq qamrab olishga yordam beradi. Bu jarayon avvalo o'quv yiliga mo'ljallangan yillik rejani ishlab chiqishdan boshlanadi. Yillik reja

tashkilotning umumiy maqsadi, rivojlanish strategiyasi, tarbiyaviy yo'nalishlar, metodik ishlar, o'ta-onalar bilan hamkorlik shakllari va tadbirlar tizimini qamrab oladi. Yillik rejadan so'ng pedagoglar oylik va haftalik rejalarni tuzadilar. Haftalik rejalashtirish esa kunlik mashg'ulotlarni aniq tartibda joylashtirish, mavzularni bolalar yoshiga mos holda integratsiya qilish, o'yin faoliyatini to'g'ri taqsimlash va rivojlantiruvchi muhitni yaratish bilan izohlanadi [6]. Mashg'ulotning texnologik xaritalari ham rejalashtirishning muhim qismi bo'lib, unda darsning maqsadi, kerakli jihozlar, usul va metodlar, o'yinlar, bolalar faoliyati, yakuniy baholash va kutilayotgan natijalar aniq ko'rsatiladi. Pedagogik jarayonni rejalashtirish orqali bolalarning psixologik, jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun optimal sharoit yaratiladi, ta'lim mazmuni muntazamlilik, tizimlilik, izchillik va samaradorlik tamoyillari asosida tashkil etiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatidan rivojlantirish, avvalo, boshqaruv jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etishni talab etadi. Ta'lim menejmenti nuqtai nazaridan olib qaralganda, maktabgacha ta'limni boshqarishda bola markazli yondashuvni ustuvor qo'yish, pedagoglar malakasini uzluksiz oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ta'lim dasturlarini innovatsion mazmunda yangilab borish hamda samarali hamkorlik tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oila, mahalla va ta'lim muassasasi o'rtasidagi uzviy aloqa bolalar tarbiyasi va rivojlanishining muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, infratuzilmani modernizatsiya qilish, xavfsiz muhit yaratish, psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish maktabgacha ta'lim sifatining barqaror o'sishiga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruvni takomillashtirish, yangi strategiyalarni joriy etish va hamkorlikni mustahkamlash kelajak avlodning barkamol rivojlanishi uchun muhim shartlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaeva M. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent, Fan va texnologiya, 2019-yil.
2. Axmedova S., Raxmonova G. Ta'lim menejmenti, nazariya va amaliyot. Toshkent. Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2021-yil.
3. Jo'rayev R, Qodirova D. Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarish asoslari. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi nashriyoti, 2020-yil.
4. Xoliqova Z. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi psixologiyasi. Toshkent. Turon-Iqbol, 2018-yil.
5. Mamarasulov A. Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. Toshkent, Istiqlol nashriyoti, 2022-yil.
6. Qosimova N. Maktabgacha pedagogika va metodika. Toshkent, O'qituvchi, 2017-yil.
7. Abdullayeva N.Sh. The role of modeling in the development of coherent speech of senior preschoolers// International journal of multidisciplinary research and analysis ISSN(print): 2643-9840, ISSN(online): 2643-9875 Volume 03 Issue 12 December 2020 DOI: 10.47191/ijmra/v3-i12-09, Impact Factor: 5.522 Page No.- 321-323
8. Abdullayeva N.Sh. Pedagogical possibilities of design activity in the process of increasing the qualification of preschool workers// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 1 2020 Page 90-95 bet
9. Valiyeva F.R. Ensuring continuity in the training of future professionals in the education system.// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences/ Volume 7 Number 6, 2019. ISSN 2056-5852
10. Valiyeva. F.R., Kurbonov Sh. Continuity in the education system // Wschodnioeuropejskie // East european science journal 12(52)2019 45-52. 2020